



TERGOV SUDYASINING VAKOLATLARI: MILLIY QONUNCHILIK VA XALQARO STANDARTLAR TAHLILI

Jo'raqulov Doniyor Davlatovich

Jamoat xavfsizligi universiteti

Magistratura bosqichi talabasi

doniyordavlatovich474@gmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada tergov sudyasining vakolatlari milliy qonunchilik hamda xalqaro standartlar nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilinadi. Unda tergov sudyasining jinoyat protsessidagi o'rni, uning protsessual vakolatlari va sud nazoratini amalga oshirishdagi ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, milliy huquqiy normalar xalqaro huquq tamoyillari, xususan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan standartlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada tergov sudyasi vakolatlarini amalga oshirish mexanizmlaridagi mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Tadqiqot natijalari jinoyat protsessida sud nazoratini kuchaytirish hamda tergov sudyasi institutini takomillashtirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:** Jinoyat protsessi, tergov sudyasi, isbot qilish, tergov, sud muhokamasi, oqlov hukmi, protsessual qonuniylik, inson huquqlari, sud nazorati, adolat prinsipi, protsessual kafolatlar.*

***Аннотация:** В данной статье проводится комплексный анализ полномочий следственного судьи с точки зрения национального законодательства и международных стандартов. В нем освещается роль следственного судьи в уголовном процессе, его процессуальные полномочия и значение в осуществлении судебного контроля. Также проводится сравнительный анализ национальных правовых норм с принципами международного права, в частности со стандартами, направленными на защиту прав и свобод человека. В статье выявляются существующие проблемы в механизмах осуществления полномочий следственного судьи и*



выдвигаются научно обоснованные предложения и рекомендации по их устранению. Результаты исследования послужат усилению судебного контроля в уголовном процессе и совершенствованию института следственного судьи.

Ключевые слова: Уголовный процесс, следственный судья, доказывание, расследование, судебное разбирательство, оправдательный приговор, процессуальная законность, права человека, судебный контроль, принцип справедливости, процессуальные гарантии.

Abstract: In this article, the powers of the investigating judge are comprehensively analyzed from the point of view of national legislation and international standards. It highlights the role of the investigating judge in criminal proceedings, their procedural powers, and the importance of judicial oversight. Also, national legal norms are subjected to a comparative analysis with the principles of international law, in particular, standards aimed at protecting human rights and freedoms. The article identifies existing problems in the mechanisms for exercising the powers of an investigative judge and puts forward scientifically based proposals and recommendations for their elimination. The research results will serve to strengthen judicial control in criminal proceedings and improve the institution of an investigative judge.

Keywords: Criminal process, investigative judge, proof, investigation, court proceedings, acquittal, procedural legality, human rights, judicial oversight, principle of justice, procedural guarantees.

Mening nazarimda, tergov sudyasi instituti jinoyat protsessining klassik modelidan zamonaviy, inson huquqlariga yo‘naltirilgan modelga o‘tish jarayonining mantiqiy natijasidir. Tergov sudyasi nafaqat protsessual ruxsat beruvchi subyekt, balki konstitutsiyaviy kafolatlarning real himoyachisi sifatida namoyon bo‘lishi lozim.

Avvalo shuni ta’kidlash joizki, tergov sudyasining vakolatlari mazmunan uch asosiy blokka ajraladi:

1. Konstitutsiyaviy huquqlarni cheklashga ruxsat berish vakolati;



2. Protsessual majburlov choralarini qo'llash ustidan nazorat;
3. Tergov harakatlarining qonuniyligini tekshirish.

Menimcha, tergov sudyasining vakolatlari formal tasdiqlovchi emas, balki real nazorat mexanizmi bo'lishi shart. Aks holda, sud nazorati deklarativ tus olib qoladi. Ayniqsa yashirin tergov harakatlari – telefon so'zlashuvlarini tinglash, elektron ma'lumotlarni olish, shaxsiy yozishmalarni nazorat qilish – bo'yicha qarorlar qabul qilishda sudya mutanosiblik va zarurat mezonlarini mustaqil baholashi zarur.

Shu o'rinda muhim jihat shundaki, tergov sudyasi vakolatini amalga oshirish tartibi faqat protsessual shakl bilan cheklanmasligi kerak. Menimcha, sudya quyidagi savollarga aniq javob topmaguncha ruxsat bermasligi lozim:

- aralashuvsiz jinoyatni fosh etishning boshqa imkoniyati mavjudmi;
- shaxs huquqlariga yetkaziladigan zarar jinoyatning og'irligiga mutanosibmi;
- so'ralayotgan chora muddati asoslantirilganmi.

Agar sudya ushbu mezonlarni tahlil qilmasdan faqat tergov organi taqdim etgan materiallarga tayanib qaror chiqarsa, sud nazorati o'z mohiyatini yo'qotadi.

Shuningdek, mening ilmiy qarashimga ko'ra, tergov sudyasining vakolatlarini amalga oshirish tartibida protsessual mustaqillik va shaffoflik bir-birini to'ldirishi kerak. Sudya yopiq majlisda qaror qabul qilishi mumkin, biroq qaror asoslantirilgan va tekshiriladigan bo'lishi shart. Qarorning motivatsiya qismi qanchalik puxta bo'lsa, sud nazorati shunchalik samarali bo'ladi.

Yana bir muhim masala – tezkor-qidiruv faoliyati bilan bog'liq ruxsatlar. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tezkor tadbirlar ko'pincha protsessual dalilga aylantirilish bosqichida muammoga duch keladi. Menimcha, tergov sudyasi ruxsat berish jarayonida keyinchalik dalil maqbulligini ta'minlaydigan mezonlarni ham inobatga olishi lozim. Ya'ni, sudya qarori kelajakdagi sud muhokamasida dalilning qonuniyligini kafolatlaydigan asos bo'lib xizmat qilishi kerak.

Tergov sudyasi vakolatlarini amalga oshirish tartibi masalasida yana bir muhim jihat – funksiyalar ajratilishi prinsipidir. Mening fikrimcha, tergov sudyasi



jinoyat ishini ko‘rib chiqadigan sud tarkibiga kirmasligi qat’iy ta‘minlanishi zarur. Aks holda, dastlabki bosqichda berilgan ruxsat keyingi sudlov jarayonida xolislikka shubha uyg‘otishi mumkin.

Shuningdek, men tergov sudyasi faoliyatining samaradorligi uchta omilga bog‘liq deb hisoblayman:

1. Normativ aniqlik – vakolatlar va ularni qo‘llash asoslari qonunda batafsil belgilanishi;
2. Protsessual standartlar – qaror qabul qilishda yagona mezonlarning mavjudligi;
3. Apellyatsiya mexanizmi – sud nazorati ustidan yuqori instansiya nazoratining mavjudligi.

Agar ushbu uch omil to‘liq ishlasa, tergov sudyasi instituti inson huquqlarini himoya qilishning real mexanizmiga aylanadi.

Xulosa sifatida shuni ta‘kidlashni lozim topamanki, tergov sudyasi vakolatlarining mohiyati ruxsat berishda emas, balki cheklash va muvozanatni ta‘minlashda namoyon bo‘ladi. U tergov manfaatlari bilan shaxs erkinliklari o‘rtasida konstitutsiyaviy muvozanatni saqlovchi protsessual arbitr bo‘lishi kerak. Aynan shu yondashuv tergov sudyasi institutining haqiqiy maqsadini ochib beradi va uning jinoyat protsessidagi o‘rnini mustahkamlaydi.

Jinoyat-protsessual kodeksimizning 31¹ moddasida tergov sudyasining vakolatlari aniq keltirib otilgan, tergov sudyasining vakolatlari jumlasiga quyidagi 14 ta vakolat kiradi:

- 1) qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish;
- 2) qamoqda saqlash yoki uy qamog‘i muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish;
- 3) ushlab turish muddatini qirq sakkiz soatgacha uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish;



4) pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

5) O'zbekiston Respublikasidan chiqish huquqini vaqtincha cheklash haqidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

6) ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

7) shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

8) ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

9) murdani eksqumatsiya qilish haqidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

10) pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

11) prokurorning guvoh va jabrlanuvchining (fuqaroviy da'vogarning) ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlash to'g'risidagi iltimosnomalarini ko'rib chiqish;

12) tintuv o'tkazish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

13) telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish;

14) mol-mulkni xatlash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish kiradi.

Endi har bitta vakolatni tahlil qilib chiqsak:

1. O'zbekiston Jinoyat-Protsessual Kodeksi (JPK) 31¹ -moddasiga ko'ra, tergov sudyasi jinoyat ishi bo'yicha shaxsni **qamoqqa olish yoki uy qamog'i** choralarini qo'llash yoki uzaytirish bo'yicha iltimosnomani ko'rib chiqadi.

Qamoqqa olish: Shaxsni jismonan cheklash orqali jinoyat tergovini samarali olib borishga imkon beradi.

Uy qamog'i: Shaxsni belgilangan hududdan chiqmaslikka majburlaydi, lekin ijtimoiy integratsiyaga salbiy ta'siri kamayadi.



Rossiyalik olim Maslovning fikricha, qamoqqa olish eng jiddiy huquqiy cheklov bo'lib, unga faqat zarurat asosida yo'l qo'yilishi kerak. Sudya qarorini qabul qilayotganda quyidagilarni hisobga olishi lozim¹:

- Jinoyatning og'irligi va xavfliligi
- Shaxsning avvalgi jinoyat tarixi
- Shaxsning sudga kelish majburiyati va yashash joyi
- Alternativ choralar: kafillik, kuzatuv, uy qamog'i

Nikolyuk (2019)² va Ivanov (2021)³ ta'kidlaganidek, qamoqqa olishni qo'llashda **mutanosiblik** tamoyili muhim. Shu bois, uy qamog'i va boshqa yengilroq choralar har doim birinchi qaror sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

Rossiya Federatsiyasida qamoqqa olish faqat tergovchi yoki sudyaga ruxsat so'ralgan holda amalga oshiriladi; uy qamog'i esa ko'proq dastlabki variant sifatida qo'llanadi.

Germaniyada sud qarori yozma asos bilan bo'lib, qamoqqa olish faqat jiddiy jinoyatlar uchun qo'llanadi.

AQShda Federal va shtat sudlari qamoqqa olish va uy qamog'ini shaxsiy xavf va jinoiy xatti-harakatga qarab ajratadi; uy qamog'i ko'pincha elektron nazorat bilan birga ishlatiladi.

2. Qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish

Qamoqda saqlash muddatini uzaytirish: Shaxsning ushlanish muddatini uzaytirish jinoyat tergovini davom ettirish uchun zarur bo'lsa amalga oshiriladi.

Uy qamog'i muddatini uzaytirish: Shaxsning belgilangan hududda qolishini ta'minlash, lekin jismonan cheklashni kamaytirish maqsadida qo'llaniladi.

Maslov (2020) ta'kidlaganidek, muddatni uzaytirish qamoqqa olishning davomiy shakli bo'lib, **asosli va motivatsiyalangan hujjatlar** bilan amalga

¹ Maslov V.V. *Judicial control over preventive measures*. Moscow: Yurist Press, 2020.

² Nikolyuk V.V. *Criminal procedural safeguards in the Russian Federation*. St. Petersburg: Law Science, 2019.

³ Ivanov V.I. *Principles of proportionality in detention measures*. Moscow: Legal Review, 2021.



oshirilishi zarur⁴. Sudya qarorida shaxs huquqlari va ustunliklari e'tibordan chetda qolmasligi kerak:

- Shaxsning sog'ligi va oilaviy vaziyati
- Jinoyatning og'irligi va tergovning davomiyligi
- Shaxsning sudga kelish majburiyati va boshqa alternativ choralar

Rassiyada qamoqda saqlash muddatini uzaytirish faqat sud nazorati bilan, yozma motivatsiyalangan qaror asosida amalga oshiriladi. Germaniyada qamoq muddatini uzaytirish faqat jiddiy jinoyatlarda va shaxs huquqlari minimal darajada cheklanadigan hollarda qo'llanadi. AQSHda Federal sudlarda qamoqda saqlash muddatini uzaytirish uchun, odatda, sud majlisi o'tkaziladi; uy qamog'i muddatini uzaytirish esa elektron nazorat bilan birga ishlatiladi.

3.Ushlab turish muddatini 48 soatgacha uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish

Bu chora tezkor va favqulodda tergov harakatlari uchun qo'llaniladi. Ushbu vakolatning asosiy maqsadi – tergov organlariga jinoyat ishini tezkor va samarali davom ettirish imkonini berishdir, ayniqsa shaxsning qochish xavfi, dalillarni yo'qotish yoki jinoyatni davom ettirish ehtimoli mavjud bo'lganda. Maslov (2020) ushbu vakolatni **favqulodda choralar** uchun belgilashni ta'kidlaydi.⁵ Ushbu vakolat **jinoyat tergovining samaradorligini oshirish** jihatidan muhim instrumentdir. Biroq uning qo'llanishi faqat **zarurat va minimal aralashuv** tamoyili asosida amalga oshirilishi lozim. Masalan, shaxsning qochish xavfi past bo'lsa yoki boshqa alternativ choralar mavjud bo'lsa (uy qamog'i, kafillik), 48 soatlik uzaytirish **faqat ehtiyot chorasi sifatida** ko'rib chiqilishi kerak. Xorijiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, ushbu vakolat **sud nazorati bilan bog'liq bo'lishi shart**, chunki shaxsning erkinligini cheklashda mustaqil sud qarori eng muhim himoya vositasi hisoblanadi⁷. Rossiya va Germaniyada sud nazorati asosiy printsipl bo'lib, sudya tomonidan qaror

⁴ Maslov V.V. *Judicial control over preventive measures*. Moscow: Yurist Press, 2020.

⁵ Maslov V.V. *Judicial control over preventive measures*. Moscow: Yurist Press, 2020.



qabul qilinishidan oldin barcha dalillar va huquqiy jihatlar tekshiriladi. Bu O‘zbekistonda ham tatbiq qilinishi lozim, chunki shaxs huquqlarini himoya qilish va jinoyat tergovini samarali olib borish **muvozanatini yaratadi**⁶. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, Rossiyada maksimal 48 soat, Germaniyada 24 soat.

4. Pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish

Ushbu vakolatning maqsadi – jinoyat tergovini samarali olib borish va shaxsning qochish, dalillarni yashirish yoki jinoyatni davom ettirish xavfini kamaytirishdir. Nikolyuk (2019) ta’kidlaydiki, pasportni to‘xtatib turish chorasi shaxsning erkinlik huquqiga vaqtinchalik va minimal aralashuvdir. Ushbu chora shaxsning faqatgina mamlakatdan chiqish yoki harakatlanish imkoniyatini cheklaydi, ammo kundalik hayot faoliyatiga jiddiy ta’sir qilmaydi. Shu jihatdan, bu vakolat **muvozanat tamoyili** asosida qo‘llanishi lozim: jinoyat tergovini samaradorligi oshiriladi, shaxs huquqlari esa minimal darajada cheklanishi kafolatlanadi⁷.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, Germaniyada va AQShda shaxsning pasportini vaqtincha to‘xtatib turish chorasi sud nazorati bilan amalga oshiriladi. Bu shaxs huquqlarini himoya qilishning eng muhim instrumenti sifatida qaraladi va tergov organlariga zaruriy favqulodda chorani tezkor qo‘llash imkonini beradi.

5. O‘zbekiston Respublikasidan chiqish huquqini vaqtincha cheklash haqidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish

Ushbu chora asosan jinoyat tergovini jarayonida shaxsning qochish, dalillarni yashirish yoki jinoyatni davom ettirish xavfini oldini olish maqsadida qo‘llaniladi. Tergov sudyasi qaror qabul qilganda shaxsning huquqlari va erkinliklariga minimal aralashuvni ta’minlashi shart. Nikolyuk (2019) ta’kidlaganidek, bu vakolat favqulodda tergov choralari kiradi. Shaxsning O‘zbekiston Respublikasidan chiqish huquqini vaqtincha cheklash chorasi, boshqa ehtiyot choralar kabi, faqat zarurat bo‘lganda va qisqa muddatga qo‘llanilishi lozim⁸. Bu chora shaxsning

⁶ Bundesgesetzblatt. *Strafprozessordnung (StPO)*. Germany, 2021.

⁷ Nikolyuk V.V. *Criminal Procedural Safeguards in the Russian Federation*. St. Petersburg: Law Science, 2019.

⁸ Nikolyuk V.V. *Criminal Procedural Safeguards in the Russian Federation*. St. Petersburg: Law Science, 2019.



kundalik hayotiga minimal ta'sir ko'rsatadi, ammo jinoyat tergovining samaradorligini oshiradi. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Rossiya Federatsiyasida shaxsning mamlakatni tark etish huquqini cheklash chorasi sud nazorati bilan qo'llaniladi. Germaniyada va AQShda ham shaxsning chet elga chiqishi yoki mamlakatni tark etishi vaqtincha sud nazorati ostida cheklanishi mumkin⁹. Bu O'zbekistonda ham sud nazoratini mustahkamlash va jinoyat tergovini samarali olib borish uchun muhim.

6. Ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish

Ushbu chora asosan ish joyi yoki lavozimining jinoyat tergovi jarayonida dalillarni yashirish, ish faoliyatini davom ettirish orqali jinoyatni davom ettirish xavfi yuzaga kelganda qo'llaniladi. Shu jihatdan, bu vakolat jinoyat tergovini himoya qilish va ish faoliyatida xolislikni ta'minlash nuqtai nazaridan muhimdir. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Rossiya Federatsiyasida sudlar shaxsning lavozimidan vaqtincha chetlashtirilishini nazorat qiladi¹⁰. Shuningdek, Germaniya va AQShda ham aynan shaxsning ish joyidagi ta'sirini cheklash chorasi **sud nazorati ostida va qisqa muddatga** qo'llaniladi

7. Shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi iltimosnomani ko'rib chiqish

Ushbu chora asosan jinoyat tergovi jarayonida shaxsning ruhiy yoki jismoniy holati sababli tergovga to'sqinlik qilishi, o'zini yoki atrofdagilarni xavf ostiga qo'yishi mumkin bo'lganda qo'llaniladi. Nikolyukning fikricha tergov sudyasi qaror qabul qilganda shaxsning huquqlarini himoya qilish, muassasa sharoitining insonparvarlik talablariga javob berishini nazorat qilish va chora zaruratga mos va vaqtinchalik bo'lishini ta'minlashi kerak¹¹. Ayblanuvchini tibbiy muassasaga joylashtirish vakolati maxsus ehtiyot chora sifatida qaraladi. Maslov V.V (2020) ta'kidlaganidek, bu chora shaxsning jinoyat tergov jarayonidagi qatnashishini

⁹ United States Code, Title 18, *Criminal Procedure and Travel Restrictions*, 2020

¹⁰ Federal'nyi zakon RF "O vnesenii izmenenii v ugovolovno-protsessual'nyi kodeks," Moscow, 2021.

¹¹ Nikolyuk V.V. *Criminal Procedural Safeguards in the Russian Federation*. St. Petersburg: Law Science, 2019



ta'minlash va jismoniy yoki ruhiy holati tufayli tergovga to'sqinlik qilish xavfini kamaytirish uchun muhim¹². Xorijiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, ruhiy yoki jismoniy holati tufayli shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish chorasini faqat sud nazorati ostida amalga oshiriladi. Rossiya Federatsiyasida sud qarori bo'lmasa bunday chora qo'llanmaydi. Germaniya va AQShda ham shaxsning insonparvarlik va huquqiy kafolatlar bilan joylashtirilishi majburiydir¹³

8. Ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish

Ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lish muddatini uzaytirish vakolati ilgari qo'llangan tibbiy choraning samaradorligini ta'minlash va jinoyat tergovining uzluksizligini kafolatlash maqsadida qo'llaniladi. Maslov V.V (2020) ta'kidlaganidek, bu chora shaxsning ruhiy yoki jismoniy holatidagi kechikishlarni hisobga olgan holda, tergov jarayonida dalillarni olish va ayblanuvchining jinoyatga aloqadorligini aniqlash imkoniyatini oshiradi¹⁴.

Bu jarayonni subyektiv jihatdan tahlil qilganda, sudya uchun quyidagi elementlar muhim hisoblanadi:

- Uzaytirish qarorining asosli, huquqiy va ilmiy-tibbiy jihatdan mustahkamligi;
- Tibbiy muassasa sharoitining insonparvarlik va xavfsizlik talablariga javob berishi;
- Shaxs huquqlarining himoyasi va qarorning minimal aralashuv tamoyili bilan mos kelishi;
- Uzaytirish muddatining qat'iy belgilanishi va nazorat ostida bo'lishi

9. Murdani eksqumatsiya qilish haqidagi iltimosnomani ko'rib chiqish

¹² Maslov V.V. ibid

¹³ united States Code, Title 18, *Criminal Procedure and Health Measures*, 2020

¹⁴ . Maslov V.V. ibid.



Murdani eksqumatsiya qilish — vafot etgan shaxsni ko‘zdan kechirish, tanib olish, tekshirish yoki [ekspertizaga](#) namunalari olish uchun murdani qabrdan chiqarib olish tushuniladi¹⁵. [Eksqumatsiya](#) harakatlarini amalga oshirishning bir qancha protsessual asoslari va tartibi mavjud. Murdani eksqumatsiya qilish asoslari va tartibi O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual [kodeksi](#) 148—152-moddalarida belgilab qo‘yilgan. Ushbu vakolat jinoyat tergovida murdani qayta ko‘rish yoki tahlil qilish zarurati tug‘ilganda qo‘llaniladi. Tergov sudyasi qaror qabul qilganda ijtimoiy, diniy va insonparvarlik nuqtai nazarlarini hisobga olgan holda, eksqumatsiya jarayonining qonuniyligini, shuningdek, marhumning yaqinlariga hurmat ko‘rsatishni ta‘minlashi lozim. Murdani eksqumatsiya qilish vakolati jinoyat tergov sifatini oshirishga xizmat qiladi. Maslov (2020) fikricha, bu chora dalillarni qayta tekshirish va tergovning to‘liqligini ta‘minlash imkonini beradi. Tergov sudyasi qarori asosida amalga oshiriladigan eksqumatsiya jarayoni faqat sud nazorati ostida va belgilangan tartibda bo‘lishi kerak, bu esa protsessual adolat va qonuniylikni mustahkamlaydi. Nikolyuk (2019) eksqumatsiya vakolatini maxsus ehtiyot chora sifatida tavsiflaydi: u faqat jinoyat tergov jarayonida zarur bo‘lganda va qisqa muddatga qo‘llanilishi lozim¹⁶.

Sudya ushbu vakolatni qo‘llashda quyidagi mezonlarga e‘tibor qaratishi lozim:

1. **Qonuniylik:** Eksqumatsiya faqat tergov uchun zarur bo‘lganda va sud qarori bilan amalga oshirilishi;
2. **Muddatning cheklanishi:** Eksqumatsiya qisqa muddatda bajarilishi va har bir jarayon hujjatlashtirilishi;
3. **Shaxs huquqlari va diniy qadriyatlar:** Marhum va uning yaqinlarining huquqlari hurmat qilinishi;

• ¹⁵ [1 apreldan murdani eksqumatsiya qilishga sanksiyalar berish huquqi prokuraturadan sudlarga o‘tkazildi \(kun.uz\) 3-aprel 2017-yil](#)

¹⁶ Ivanov V.I. *Principles of Judicial Oversight in Criminal Procedure*. Moscow: Legal Science, 2021.



4. **Nazorat mexanizmi:** Eksgumatsiya jarayoni sud nazorati ostida bo'lishi;

5. **Dalillarni himoya qilish:** Olingan materiallar tergov va sud jarayonida faqat qonuniy maqsadlar uchun ishlatilishi.

10. Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish

Xatlash jarayoni, odatda, shaxsiy xat va paketlar, pochta va telekommunikatsiya vositalari orqali uzatilgan materiallarni tekshirishni o'z ichiga oladi. Tergov sudyasi qarori bilan amalga oshiriladigan bu chora, protsessual qonuniyat, shaxsiy hayot va mulkiy huquqlarni hurmat qilish tamoyillarini hisobga olgan holda qo'llaniladi. Mening fikrimcha, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash vakolati zamonaviy jinoyat tergovida zaruriy va samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, bu chora shaxsiy hayotga aralashuv bo'lgani sababli, uni amalga oshirishda faqat qonuniy va ehtiyotkorona yondashish zarur.

Sudya ushbu vakolatni qo'llashda quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim:

1. **Zarurat printsiipi:** Xatlash faqat tergov maqsadlari uchun zarur bo'lganda qo'llanilishi;

2. **Minimal aralashuv:** Shaxsiy sir va maxfiylikni himoya qilish;

3. **Muddat va hajmning aniqligi:** Qaror aniq muddat va xatlash hajmini belgilashi;

4. **Nazorat mexanizmi:** Xatlash jarayoni faqat sud nazorati ostida amalga oshirilishi;

5. **Dalillarni himoya qilish:** Xatlash natijalari faqat tergov va sud jarayonida ishlatilishi

11. Prokurorning guvoh va jabrlanuvchining (fuqaroviy da'vogarning) ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlash to'g'risidagi iltimosnomalarini ko'rib chiqish



Ushbu vakolat tergov jarayonida guvoh va jabrlanuvchining ko'rsatmalarining ishonchliligini ta'minlash, shuningdek, keyingi sud majlislarida ularning dalil sifatida ishlatilishini kafolatlash maqsadida qo'llaniladi. Oldindan mustahkamlash jarayoni, odatda, guvoh va jabrlanuvchilarni sudga chaqirishdan oldin ularning ko'rsatmalarini qayd etishni o'z ichiga oladi. Tergov sudyasi qarori bilan amalga oshiriladigan bu chora, guvohning xotirasi buzilishining oldini olish va tergov samaradorligini oshirishni ta'minlaydi. Nikolyuk (2019) ta'kidlaganidek, oldindan mustahkamlash sud jarayonidagi noaniqliklarni kamaytiradi va guvohning xotirasining vaqt o'tishi bilan buzilishini oldini oladi¹⁷. Shu bilan birga, tergov sudyasi bu jarayonda protsessual adolat va shaxsiy huquqlarni himoya qilish tamoyillariga qat'iy amal qilishi kerak. Mening fikrimcha, guvoh va jabrlanuvchining ko'rsatmalarini oldindan mustahkamlash vakolati zamonaviy jinoyat tergovining samaradorligini oshirishda muhim vositadir. Bu chora orqali sudda dalillar yanada aniq va ishonchli bo'ladi. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Rossiya Federatsiyasida guvoh va jabrlanuvchining ko'rsatmalarini oldindan mustahkamlash faqat sud nazorati ostida, guvoh xavfsizligi va psixologik holati hisobga olingan holda amalga oshiriladi¹⁸. AQSh va Germaniyada ham oldindan guvoh ko'rsatmalarini qayd etish jinoyat tergov samaradorligini oshirish va guvoh xotirasining buzilishini oldini olish maqsadida qo'llaniladi¹⁹. Shu jihatdan, O'zbekistonda ushbu vakolat samarali tergov va protsessual adolatni mustahkamlash nuqtai nazaridan muhimdir.

12. Tintuv o'tkazish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish

Tintuv — jinoyiy ish bo'yicha dalillarni olishga qaratilgan tergov harakati. O'zbekiston Respublikasi JPKning 158-moddasiga ko'ra, surishtiruvchi va tergovchi biror turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosida yoki o'zga joyda yoxud biror shaxsda ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa yoki hujjatlar bor deb o'ylash uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lgan taqdirda tintuv o'tkazishga haqlidir tintuv

¹⁷ Nikolyuk V.V. ibid.

¹⁸ Federal'nyi zakon RF "O vnesenii izmenenii v ugolovno-protsessual'nyi kodeks," Moscow, 2021.

¹⁹ Bundesgesetzblatt. *Strafprozessordnung (StPO)*. Germany, 2021; United States Code, Title 18, *Criminal Procedure*, 2020.



qidirilayotgan shaxsni, shuningdek, murdani topish uchun ham o'tkazilishi mumkin. Tergov sudyasi qarori bilan amalga oshiriladigan tintuv jarayoni, shaxsiy hayot va mulkiy huquqlarni hurmat qilgan holda, faqat jinoyat tergovni maqsadida amalga oshiriladi³. Ushbu vakolatning qonuniyligi sud nazorati orqali kafolatlanadi, bu esa tergovning qonuniyligi va protsessual adolatni ta'minlaydi. Mening fikrimcha, tintuv vakolati jinoyat tergovining eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bu chora shaxsiy huquqlarga aralashuvni minimallashtirish va qonuniylikni ta'minlash nuqtai nazaridan sud nazorati ostida amalga oshirilishi lozim.

13. Telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish

Agar ish bo'yicha to'plangan dalillar ish uchun ahamiyatga molik ma'lumotlar olinishi mumkinligiga yetarli darajada asos bo'la olsa, surishtiruvchi, tergovchi telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish to'g'risida qaror chiqarishga haqlidir²⁰. Ushbu vakolat maxfiy tergov choralariga taalluqli bo'lib, jinoyat tergovida ma'lumot yig'ishning samarali va qonuniy mexanizmini ta'minlaydi. Telefon va telekommunikatsiya vositalari orqali eshitish vakolati zamonaviy jinoyatlarni aniqlash va oldini olishda muhim vosita hisoblanadi. Maslov (2020) ta'kidlaganidek, bu chora maxfiylikni saqlagan holda jinoyat tergovini samarali qilish imkonini beradi²¹.

Tergov sudyasi qaror qabul qilganda quyidagilarni hisobga olishi zarur:

- Eshitish faqat jinoyat tergovni maqsadida amalga oshirilishi;
- Shaxsiy hayotga minimal aralashuv tamoyili saqlanishi;
- Eshitish muddati aniq belgilangan bo'lishi va uzoq muddatli ruxsatlarda

qo'shimcha nazorat bo'lishi;

²⁰ (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2020-y., 03/20/651/1577-son)

²¹ Maslov V.V. *Judicial Control over Preventive Measures*. Moscow: Yurist Press, 2020.



- Olingan axborot faqat jinoyat tergov va sud jarayonida dalil sifatida ishlatilishi

Mening fikrimcha, telekommunikatsiya vositalarini eshitish vakolati zamonaviy jinoyat tergovining ajralmas qismi bo'lib, ayniqsa, kiberjinoyatlar, moliyaviy firibgarlik va tashkil etilgan jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega.

14. Mol-mulkni xatlash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish kiradi

Mol-mulkni xatlash — bu jinoyat ishi doirasida ayblanuvchining yoki boshqa shaxsning mol-mulkini tekshirish, qidirish va dalil sifatida aniqlash chorasi hisoblanadi. Xatlash jarayoni faqat sud ruxsati bilan amalga oshiriladi va shaxsiy mulk va huquqlarni hurmat qilgan holda, dalillarni qonuniy yig'ish maqsadida qo'llaniladi. Shu bilan birga, mol-mulkni xatlash jinoyat tergovining samaradorligini oshirish, jinoyatga aloqador dalillarni aniqlash va saqlash imkonini beradi. Mening fikrimcha, mol-mulkni xatlash vakolati jinoyat tergovining samarali vositasi bo'lib, ayniqsa, moliyaviy firibgarlik, korrupsiya va tashkil etilgan jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega⁹.

Sudya ushbu vakolatni qo'llashda quyidagilarga e'tibor qaratishi muhim:

1. Zarurat printsiplari: Xatlash faqat tergov maqsadlari uchun zarur bo'lganda amalga oshirilishi;
2. Minimal aralashuv: Shaxsiy mulk va huquqlar himoyalaniishi;
3. Muddat va hajmi belgilash: Qarorda xatlashning aniq muddati va ob'ekti belgilanishi;
4. Dalillarni himoya qilish: Xatlash natijalari faqat tergov va sud jarayonida ishlatilishi;
5. Sud nazorati: Jarayon faqat sud nazorati ostida amalga oshirilishi¹⁰.



Shu jihatdan, mol-mulkni xatlash vakolati dalillarni yig'ish, jinoyat tergovini samarali olib borish va protsessual adolatni mustahkamlash nuqtai nazaridan muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Rajabov B.A.* Jinoyat protsessida dalillarni to'plash, tekshirish va baholash: Monografiya – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – B. 5
2. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 4-apreldagi “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-470-son Qonuni // <http://lex.uz/docs/3609511> (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi);
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3723-son qarori // <http://lex.uz/docs/3735818> (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida”gi 24-sonli qarori // <http://lex.uz/docs/3895986> (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).
5. 2023-yilda sudlar tomonidan 1 ming 244 nafar shaxs oqlandi // <https://yuz.uz/news/2023-yilda-sudlar-tomonidan-1-ming-244-nafar-shaxs-oqlandi>
6. Tadjiyev A.A. Jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta'minlashni takomillashtirish: falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2025.